ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"ASILSHOX LOYIXA" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Rajabaliyev Jahongir Faxriddin O‘g‘li
Sana: 10-09-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

215824 - SONLI

Obyekt nomi: Ko‘p qavatli turar-joy binolari va majmualari - 5 qavatgacha	
Buyurtmachi:	MAMAJONOV ASILBEK AZIZ O‘G‘LI
Bosh loyihachi:	"CREATIVE PROJECTS" MCHJ
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Mamajonov Asilbek Aziz o‘g‘li
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	028246

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. “"ELEKTRON-ONLAYN AUKSIONLARNI TASHKIL ETISH" AJ tomonidan Elektron-onlayn auksion natijalari to’g’risidagi № YU-1169787 sonli bayonnomasi. “"ELEKTRON-ONLAYN AUKSIONLARNI TASHKIL ETISH" AJ tomonidan Elektron-onlayn auksion natijalari to’g’risidagi № YU-1170031 sonli bayonnomasi.

1.2. Buyurtmachi Mamajonov Asilbek Aziz o‘g‘li tomonidan 27.06.2024-yilda tasdiqlangan “Loyiha topshirig’i”.

1.3. Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 07.04.2024-yildagi 1708-1708212-192416-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 07.04.2024-yildagi 1708-1708212-192417-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.4. **"Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Toqchilik Mfy xududida 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi"** ob'ekti bo'yicha " ABSOLYUT-KLASSIK " MCHJ tomonidan bajarilgan - Qurilish maydonining muhandislik geologik tadqiqotlari natijalari to'g'risidagi 2024 yil iyun oyidagi xulosasi.

1.5. Buyurtmachi Mamajonov Asilbek Aziz o‘g‘li va loyiha tashkiloti “CREATIVE PROJECTS” MChJ o'rtasida loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun tuzilgan №15-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi loyihaviy xujjatlar.

2.2. Arxitektura va qurilish yechimlari.

2.3. Tarmoq muhandisligi.

2.4. Smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. **Qurilish maydoning xususiyatlari**.

- Qurilish va iqlim zonasi – II;
- Tashqi havoning taxminiy qishki harorati – 19 g S;
- Shamolning standart bosimi – 0,38 kPa;
- Standart qor yuki – 0,50 kPa;
- Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi – 8 ball.

3.2. **Loyihaning "Arxitekturaviy va Konstruktiv yechimlari" qismi.**

Arxitekturaviy yechimlar:

2 dona 5 qavatli turar joy binosi 5 qavatli va yerto'lali bo'lib, bino rejada to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib oq bo'ylab o'lchamlari 14,9x42,0m ni tashkil qiladi. 5 qavatli turar joy binosi 2 yo'lakli bo'lib,

yerto'la qismining balandligi poldan shiftgacha h=1,6m ni, 1-5 qavatlarda balandligi poldan shiftgacha h=3,0m ni tashkil qiladi.

1ta 5 qavatli turar joylar xonadonlar soni:

2 xonali xonadonlar soni - 30 ta;

3 xonali xonadonlar soni - 10 ta;

Jami 2 ta 5 qavatli turar joylar xonadonlar soni – 80 ta.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Qurilish maydoni - 575,0m2;
Umumiy maydon - 2858,00m2;
Samarali maydon - 2545,0m2;
Yashash maydoni – 2131,0
Qurilish hajmi –10932,0m3.

Konstruktiv yechimlar:

Poydevor – quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Poydevorlar setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Yerto'la devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan yig'ma temir-beton FBS bloklaridan.
Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar temir-beton o'zaklar va har 500mm oraliqda gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdan issiq saqlovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.
Ustunlar – monolit temir-betondan. Beton sinfi B22.5. Ustunlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan. Ustunlar o'lchami 400x400mm ni tashkil qiladi.
Tos'inlar – o'lchami 400x400mm bo'lgan monolit temir-betondan. Beton sinfi B22.5. To'sinlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
O'zaklar (serdechnik) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. O'zaklar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo'lib M75 markali pishiq g'ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Pardevorlar gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Zinapoya - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B20. Zinapoya setkalar yordamida kuchaytirilgan.
Sarrovlar (peremichka) - monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. Sarrovlar armaturalar yordamida kuchaytirilgan.
Orayopma va tomyopma - g'ovakli yig'ma temir beton plitalar.
Tom - chordoqli. Konvert shaklda bo'lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

3.3. **Energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish.**

Loyihada energiya samaradorligi va muqobil energiyadan foydalanish bo'yicha quyidagi ishlar ko'zda tutilgan:
Bino fasadi issiq saqlovchi material bilan qoplangan;
Tomning chordoq qismida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
Bino polida issiq saqlovchi material qo'llanilgan;
Deraza romlarida steklopaket qurilmasi ko'zda tutilgan;
Bino tomida quyosh panellarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

.1. **Loyihaning "Elektr ta'minoti" qismi.**

Ichki elektr tarmoqlari:

Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida SHE-4-1-36 UXL4(IP31)olingan. Ximoya aparatlari uchun VA47 avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral va tarkatuvchi tarmoklar uchun Vvgng[1]0,66 kv markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo’llanilgan

FES (Fotoelekt stansiyasi) loyihasi:

Binoning tom qismiga quvvati 500 Vt umumiy quvvati 12.0kVt bo‘lgan jami 24 ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 12 kVt bo‘ lgan invertor o‘rnatilgan.

Tashqi 0,4kV elektr tarmoqlari:

Tashqi elektr taminoti loyiha ishlari buyurtmachining murojatiga bajarilmagan. Ekspertiza tashkilotiga loyiha tashkiloti tomonidan tashqi elektr taminotini taqdim etilmagani sababli tashqi elektr ta’minotini ko’rib chiqilmagan tomonidan.

4.2. **Loyihaning "Suv ta'minoti va oqova suv tarmog'i" qismi.**

Ichki tarmoqlar:

Maishiy ichimlik ehtiyojlari uchun zarur bosimni ta'minlash uchun loyiha saytida joylashgan nasos stantsiyasini nazarda tutadi. Suv ta'minoti tarmoqlari Ø20-Ø50 mm polipropilendan tayyorlangan. Issiq suv ta'minoti - Suv isitgichi Issiq suv ta'minoti 80 l quvvatga ega Ariston tipidagi suv isitgichlaridanl issiq suv manbai hisoblanadi Chiqish va ichki kanalizatsiya tarmoqlari K1 GOST 22689-89 bo'yicha 50-100 mm plastik quvurlardan tayyorlangan.

4.3. **Loyihaning "Isitish va shamollatish tizimlari" qismi.**

Isitish tizimlari ikki quvurli gorizontal tizim sifatida qabul qilinadi, quvurlar izolyatsiyalangan holda quyi to'ldirish kanaliga yotqizilgan. Quvurlar polipropilendan (PN25) ishlab chiqariladi. Bimetalik seksiyali radiator "Avangard AV-0611" BR-500 1 qism-0,166 kVt ish bosimi 16 atmgacha. Isitish tizimidan havo olib tashlash isitish moslamalarining yuqori qismida o'rnatilgan havo shamollatish klapanlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bino barcha muxandislik tizimlari bilan jixozlangan : isitish , shamollatish , xavoni tozalash , elektr ta'minoti , aloqa va signalizasiya , videokuzatuv ta'minoti va kanalizasiya , xafvlilik va yong'in signalizasiya , yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaxarning muxandislik tarmoqlarida texnik shartlarga muvofiq ulanadi (Art xulosasiga va loyixalashtirish topshirig'iga asosan)

Elektr ta'minoti yoritish tizimida energiya tejamkor svetaoidli chiroqlar foydalanilgan ;

4.4. **Yong'inga qarshi chora-tadbirlar.**

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – 2.
Binoning funksional yong'in xavfi sinfi – F1.3
Loyihada quyidagilar ko'zda tutilgan:
- Evakuatsiya yo'llarida devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan ishlangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Jizzax viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi qoshidagi Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 18.07.2024-yildagi 135687587-sonli

xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Jizzax viloyati filialining 2024 yil 19 iyuldagi 01-02/04-315-sonli ijobiy xulosasi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Jizzax viloyati filialining 2024 yil 05 sentabrdagi 01- 02/04-466-sonli ijobiy xulosasi

5.5 **"Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Toqchilik Mfy xududida Ko‘p qavatli turar-joy binolari va majmualari - 5 qavatgacha"** obyekti gazlashmagan, muhandislik tarmoqlaridan faqat suv va elektr tarmog'i mavjud.

5.6. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **14 559 352 392** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

322 752 474 so'mga kamaytirilib, **14 236 599 918** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **12 176 365 799** so'm

Asbob-uskunalar: **494 337 876** so'm

QQS: **1 525 349 991** so'm

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida ekspert tomonidan berilgan lokal xulosalardagi izohlar buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyiha-smeta hujjatlariga tegishli tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisizva QQS bilan birga – **14 559 352,392** ming so‘m taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi, mashina mexanizmlari narxi pasaytirilishi, lokal(mahalliy) smeta hujjatlari qayta hisoblanishi, ish turlarining amaldagi qurilish me’yorlari va qoidalari asosida hisoblanishi xisobiga – **322 752,474** ming so‘mga kamaytirildi.

6.3. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda **"Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Toqchilik Mfy xududida Ko‘p qavatli turar-joy binolari va majmualari - 5 qavatgacha"** obyekti bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun 12 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda – **14 236 599,918** ming so'mga tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari (QMI) – **12 176 365,799** ming so‘mni;

– jihoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikda – **494 337,876** ming so'mni;

– qurilish vaqtida qurilish obyektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar (0,32%) – **40 546,252** ming so'mni;

– qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) 12% **– 1 525 349,991** ming so'mni tashkil etgan;

Ishchi quruvchilarning o‘rtacha bir soatlik ish xaqi buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan narxlar kelishuvi asosida **23 005,36 x 1,12 = 25 766,00** so‘m ijtimoiy sug‘urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo‘yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta'kidlash joizki:

***Berilgan yig'ma ekspert xulosasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021-yildagi №579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 1.1, 1.5 va 1.6 bandlarini inobatga olgan holda tayyorlangan va Mamajonov Asilbek Aziz o‘g‘li qurilish ishlarini o'z hisobidan bajarayotganligi sababli to'g'ridan to'g'ri bank kreditlari olish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi.**

Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi: – pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;
– "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;
– ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.
6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4-bandi).
6.6. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston
Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29- bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".
6.7. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatining xaqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.
6.8. Jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikdagi 12% QQS va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz - **494 337,876** ming so‘mni tashkil etib, ushbu mablag‘ning aniq sarfini buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda **"Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Toqchilik Mfy xududida Ko‘p qavatli turar-joy binolari va majmualari - 5 qavatgacha"** obyekti uchun ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari Zilzilabardoshlik va yong'in xavfsizligi bo'yicha ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olib tasdiqlashga tavsiya etiladi.
Bosh mutaxassis: Miltiqov Timur Nusratulla o'g'li
Ishtirokchi ekspertlar:Lapasov Sherzod Boymurodovich.
Nurjovov Jamshid Baxtiyor o‘g‘li.
Inomjonov Dadajon Laziz o‘g‘li